

AVSTRALIYA QUOLLI KUCHLARIGA CHAQIRILUVCHILARNI MERGAN MUTAXSSISIGIGA TAYYORLASH TAJRIBASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8049593>

Maxamadiyev Z.Sh.

*podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi
Qurollanish va otish kafedrası sıkl boshlig'i*

Mazkur maqolada Avstraliya qurolli kuchlariga qabul qilingan yangi chaqiriluvchilarning tayyorgarlik kursi, mashg'ulotlar bosqichi, o'tkazish tartibi va davomiyligi to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar

Harbiy tayyorgarlik markazi, harbiy huquq, shaxsiy boshqaruv, intensiv ish.

В данной статье рассматривается принятый Вооруженными силами Австралии курс подготовки вновь призываемых военнообязанных, его стадии обучения, порядок проведения и продолжительность.

Ключевые слова

центр военной подготовки, военное право, саморегуляция, интенсивная работа.

Abstract

This article discusses the training course adopted by the Australian Armed Forces for newly drafted military personnel, its stages of training, the procedure for conducting and duration.

Key words

military training center, military law, self-regulation, intensive work.



Avstraliyaning yangi janubiy Uels shtatining Olimpiya shossesida "Kapooka" harbiy tayyorgarlik markazi qoshidagi "1-harbiy o'quv batalyoni" joylashgan. Mazkur markaz 1942 yildan buyon chaqiriluvchilarni tayyorlashda yetakchi markaz bo'lib faoliyat olib bormoqda. Harbiy tayyorgarlik markazi Avstraliya qurolli kuchlariga yangi qabul qilingan chaqiriluvchilarning faoliyatlarini

boshlashlaridan oldin tayyorgarlikdan o'tishlarini ta'minlaydi. Ushbu markazda harbiy xizmatchilar 80 kunga mo'ljallangan tayyorgarlik kursidan o'tishlari talab qilinadi. Kurs jismoniy va ruhiy jihatdan qiyin bo'lgan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Kurs davomidagi muvaffaqiyatsizliklar, jarohatlar yoki shaxsiy holatlar tufayli ba'zi harbiy xizmatchilar kursni yakunlash uchun ko'proq vaqt talab qilinadi. Ushbu chaqiriluvchilarga kerakli qo'shimcha ta'lim va yordam beriladi. Harbiy xizmatchilarni mamlakat qurolli kuchlarida xizmat qilishlarini ta'minlash maqsadida mudofaa vazirligi tomonidan kursni yanada rivojlantirish yo'lida o'zgarishlar qilinib kelinmoqda.

Ushbu tayyorgarlik kursining tartib va intensivligi ishga qabul qilinganlarning oila a'zolari va do'stlari bilan doimiy aloqada bo'lishlari uchun oz vaqt qoldiradi, garchi telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan rejalashtirilgan davrlar mavjud bo'lsa ham.

Mashg'ulotlar erta tongdan boshlanib, kechga qadar davom etadi va hafta davomida uzluksiz o'tkaziladi. Ushbu markazda 18 yoshdan oshgan Avstraliya qurolli kuchlari safiga qo'shilgan chaqiriluvchilarni 11 hafta davomida umumharbiy o'quv dasturi bo'yicha dastlabki harbiy malakasini oshirish uchun xizmat qiladi. Mazkur kurs yosh chaqiriluvchilarning yakka va guruh tarkibida ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga mo'ljallangan bo'lib, bu ularga keyingi harbiy xizmat faoliyatida malakali mutaxassis bo'lishiga yordam beradi. Mazkur harbiy o'quv markazi 200 nafar chaqiriluvchini o'qitish imkoniyatiga ega.

O'quv kursi mashg'ulotlarning kirish haftasida armiyaga chaqiriladi. Kirish yo'riqnomasi, jismoniy tarbiya, dastlabki harbiy jihozlarni berish, harbiy huquq va intizom, harbiy ma'muriyat va shaxsiy boshqaruvni o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiya mashqlarida chaqiriluvchilarni xavfsizligini ta'minlash maqsadida dastlab fitnes testlari bajariladi.

Dastlabki jismoniy tayyorgarlik sinovidan o'tolmagan chaqiriluvchilar keyingi mashg'ulotlarga kiritilmaydi va takroran mashqlarni topshirish uchun qayta tayyorlov vzvodiga o'tkaziladi. Ushbu vzvodda mashg'ulotlarni o'tkazib, samarali topshirganlar keyingi mashg'ulotlar xaftasiga kiritiladi.

Dastlabki jihozlar tarkibida kamuflyaj, jismoniy tayyorgarlik kiyimi, qurol va boshqa narsalarni olib yuradigan turli xildagi dala jihozlari mavjud.

Harbiy ma'muriyatga tibbiy ko'rik, emlash, ruhiy salomatlik bo'yicha treninglar, mehnat salomatligi va xavfsizlik bo'yicha brifinglar, shuningdek, o'quv markazi xodimlari bilan tanishish, gender va madaniy xabardorlik bo'yicha treninglar o'tkaziladi.

Hafta davomida chaqiriluvchilarga shaxsiy jihozlar va turar joylarini tartibga keltirish va shaxsiy mas'uliyatga oid mashg'ulotlar amalga oshiriladi.

Kirish haftasi chaqiriluvchilarning armiya tartibiga o'rganishlari uchun zarur bo'lgan asosiy bilimlar shakllantiriladi. Chaqiriluvchilar fuqarolik hayotidan harbiy hayotga o'tish, ko'p hollarda oldindan noma'lum bo'lgan tashvish tufayli stressni boshdan kechiradi. Bu his-tuyg'ular barchasi normal hisoblanadi markazning tarbiyaviy ishlar bo'yicha tayinlangan katta ofitserlar tarkibidagi mutaxassis harbiy xizmatchilar tomonidan jamoaviy tartibda ish olib borish orqali ularga stress holatlariga qarshi turish va axloqiy ruhiy holatni ushlab turishga yordam beradi.

Mashg'ulotlar qo'yidagi tartibda olib boriladi:

1-hafta Nazariy bilimlarni oshirish

Hafta boshida chaqiriluvchilar jarohatlarni oldini olish bo'yicha o'qitiladi, aylanma mashg'ulotlar, yugurish va chidamlilik marshlari bilan tanishtiriladi. Ular Avstraliya armiyasida foylaniladigan "F88 Austrey" qurolidan otish bo'yicha nazariy qo'nikmalar va uning xavfsizligi, ishlatilishi, texnik xizmat ko'rsatishi va ishlatilishining barcha jihatlari bo'yicha o'qitiladi. Chaqiriluvchilar qurol bilan ishlashda ehtiyot choralari haqidagi bilimlari asosida baholanadi.

2-hafta Dala o'quv maydonida otish mashg'ulotlari



Ushbu haftada mashg'ulotlarning asosiy yo'nalishi quroldan amaliy otishda o'q otish tamoyillarini qo'llash va nishonga olish mahoratini oshirishga qaratiladi.

Chaqiriluvchilar dala o'quv maydonida jangovar o'q otish mashqlarini boshlashdan oldin "F88 Austrey" quroli bo'yicha o'rgangan ko'nikmalari va bilimlari bo'yicha baholanadi. Imtihondan o'ta olmagan chaqiriluvchilar qayta tayyorlash vzvodiga o'tkaziladi. Keyingi haftada chaqiriluvchilarga mamlakat qurolli kuchlari tarkibida mavjud bo'lgan radiostansiyalarini yig'ish, boshqarish va saqlash mashg'ulotlari o'tkaziladi. Jismoniy tayyorgarlik yo'nalishida o'zoq va qisqa masofaga yugurish hamda suzish sinovidan iborat mashqlar bajariladi.

3-hafta Jamoaviy tartibni shakllantirish

Uchinchi haftada chaqiriluvchilar guruh tarkibida jangovar tayyorgarlik mashqlarini amalga oshiradi.

Chaqiriluvchilarga ekstrimal vaziyatlarda omon qolishga qaratilgan suzish mashqlari va o'zoq masofaga yugurish bo'yicha chidamlilik mashqlari o'tkaziladi.

Guruh tarkibida qo'yilgan maxsus vazifalarni bajarish malakasini oshirish, jangovar topshiriqlarni bajarish uchun bo'linmalarni muvofiqlashtirish, qurol va harbiy texnikani jangovar qo'llashga o'z vaqtida tayyorlash mashg'ulotlari o'tkaziladi.

4-hafta O'q otishni rivojlantirish

Ushbu hafta asosiy e'tibor "F88 Austrey" qurolidan foydalanish va jangovar o'q otishni rivojlantirishga qaratilgan. Amaliy o'q otish mashg'ulotlari turli o'q otish pozitsiyalari va harakatlanuvchi nishonlardan foydalangan xolda davom ettiriladi. Mashg'ulotlar oldindan tayyorlangan yopiq hududlarda olib boriladi.



Mashg'ulotlarda elektron o'q otish simulyatorlaridan keng foydalaniladi. Hafta oxirida chaqiriluvchilar o'q otish bo'yicha imtihon topshirishlari talab etiladi. Imtihonlarni a'lo topshirgan chaqiriluvchilar dala o'quv maydonida jangovar o'q dorilar bilan amaliy o'q otishlari belgilangan.

Ushbu amaliyot barcha chaqiriluvchilarga o'zlari va vzvodlarini qo'llab-quvvatlash uchun qurollaridan o'q otishda asosiy otish qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradi.

Shuningdek, tungi ko'rish moslamalarining nazariyasi, ishlashi va texnik xizmat ko'rsatishi bo'yicha darslar o'tkaziladi.

Jismoniy tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha chaqiriluvchilar tezlikka asoslangan o'yinlarni o'ynaydilar (vaqtga yugurish, suzish va h). Bundan tashqari hafta oxirida shanba kuni ularga Vagga shahriga chiqish uchun 8 soatlik ta'til beriladi.

5-hafta Armiya tarixi bilan tanishish

Mazkur haftada chaqiriluvchilar harbiy tarix va urf-odatlar bo'yicha darslarni Kanberradagi Avstraliya urush yodgorligiga sayohat bilan birlashtirishdan boshlashadi.

Bu chaqiriluvchilarga o'zlaridan oldin armiyada xizmat qilganlar va o'zlari o'rtasida aloqa o'rnatishga imkon beradi.



Shuningdek, mamlakat qurolli kuchlari tarixi bo'yicha darslar va o'zini anglash, armiya qadriyatlarini, xarakteri va rivojlanishini bo'yicha darslar o'tkaziladi. Jismoniy tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha bu haftada tananing yuqori qismini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar va chidamlilik marshini o'z ichiga oladi. Vagga

shahrida 8 soatlik ta'til yakshanba kuni cherkovda ibodat qilgandan keyin beriladi.

6-hafta Tibbiy tayyorgarlik

Ushbu haftaning asosiy yo'nalishi birinchi tibbiy yordam ko'rsatish mashg'ulotlariga qaratilgan. Keyingi uch yarim kun ichida chaqiriluvchilar birinchi tibbiy yordam bo'yicha intensiv treningdan o'tadilar va birinchi yordamning barcha tegishli jihatlari bo'yicha baholanadi. Shuningdek, himoya vositalarining tuzilishi, tarkibi va ulardan foydalanish bilan tanishadilar.

Navigatsiya nazariyasi shu hafta, chaqiriluvchilar xaritada joylashuvni chizish va masofani o'lchashni o'rganishlari belgilangan. Shuningdek, ularga kompas yordamida joyda oriyentirlash, joyni tanlash va o'zgartirish asoslari o'rgatiladi. Jismoniy tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha bu haftada chidamlilikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkaziladi.

7-hafta Portlovchi vositalar bilan ishlash

Ushbu haftada chaqiriluvchilar portlovchi qurilmalar va granatalar kabi portlovchi vositalar bilan tanishadilar. Ularga ushbu vositalarni xavfsiz boshqarish, saqlash va ishlatish bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Amaliy navigatsiya darslari qiyin yoki xaritada ko'rsatilmagan hududlarda o'tkaziladi.

Ushbu hafta jismoniy tayyorgarlik yo'nalishi bo'yicha chaqiriluvchilar arqonda ko'tarilish va yaradorlarni jang maydonidan olib chiqish va zambilni to'g'ri ko'tarish kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Chidamlilik yurishlari yanada qiyinlashtiriladi va to'siqlarni yengib o'tish mashqlari xam qo'shiladi, shuningdek, to'g'ri ovqatlanish bo'yicha darslar o'tkaziladi. Bunda asosiy e'tibor ovqatlanish uchun kaloriyaga boy mahsulotlarni tanishtirishga qaratiladi.

8-hafta Jismoniy tayyorgarlik

Ushbu hafta chaqiriluvchilarni o'tgan haftalar davomida bajargan mashqlarini baholash bilan boshlanadi. Umumiy fitnes sinovlari bo'lib o'tadi. Sinovlardan o'tolmagan chaqiriluvchilar ushbu baholashni yakunlashlari uchun aniq ko'nikmalarni o'rgatish uchun qayta tayyorlash vzvodiga o'tkaziladi. Shuningdek, intensiv jismoniy mashg'ulotlar, arqonga ko'tarilish va omon qolish uchun suzish mashg'ulotlari xam davom ettiriladi. Hafta o'rtalarida qilichbozlik janglari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. Oldindan tayyorlangan o'tish qiyin bo'lgan hududlarda chaqiriluvchilarning amaliy navigatsiya bo'yicha egallagan qo'nikmalari baholanadi. Bundan tashqari, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, jamoa a'zosi sifatida rivojlanish va maqsadlarni belgilashga qaratilgan vazifalar xam bajariladi. Haftaning shanba kuni Vagga shahrida 8 soatlik ta'til beriladi.

9-hafta Dala o'quv maydoni (davomi)

Ushbu hafta ham fitnesni baholash bilan boshlanadi. Bu baholash o'tgan haftalarda o'tkazilgan ko'p haftalik tayyorgarlikni talab qiladi.

Shunga qaramay, chaqiriluvchilarning kichik bir qismi ushbu baholashning har bir bosqichidan o'tolmaydi va shuning uchun ular ushbu talabdan o'tishlari uchun aniq ko'nikmalarni o'rgatish uchun qayta tayyorlash vzvodiga o'tkaziladi.

Haftaning qolgan qismida mashg'ulotlar dala o'quv maydonida olib boriladi. Mashg'ulotlarda patrullik, navigatsiya va jamoaviy ish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bu yerda egallangan ko'nikmalar dala muhitida vzvodda shaxsni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

10-hafta Guruh tarkibida ishlash

Mazkur haftada chaqiriluvchilar mashg'ulotlarni dala o'quv maydonida davom ettiradi.

Chaqiriluvchilar kichik guruhlardan vzvod tarkibida jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlariga kirishadi.

Ushbu davrning yakuniy baholari hafta yakunidagi imtihonlarda aniqlanadi. Chaqiriluvchilar o'tgan haftalarda egallagan bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazishadi. Ushbu yakuniy baholash jismoniy va ruhiy jihatdan chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga xar tomonlama tayyor ekanliklarini ko'rsatadi.

Haftaning shanba va yakshanba kunlari 11-haftada bo'lib o'tadigan tantanali marshga tayyorgarlik ko'rish uchun uskunalar va kazarmalarni qayta ko'rib chiqish, tozalash va texnik xizmat ko'rsatishga bag'ishlanadi.

Chaqiriluvchilar o'zlarining tayyorgarlikning qaysi bosqichida ekanliklarini bildirish uchun yelkalariga tanitish belgisini taqib yurishlari talab qilinadi. Mashg'ulotlarning ilk bosqichida chaqiriluvchilar qizil rangli tanitish belgisini taqib yurishadi.

Mashg'ulotlarning 3 haftasini oxirida ko'k rangli tanitish belgisini taqishlari belgilangan. Mashg'ulotlarning 7 haftasidan samarali yakunlagan chaqiriluvchilar tilla rangli tanitish belgisini taqishlari talab etiladi. Tilla rangli belgi chaqiriluvchilarning mashg'ulotlarni samarali o'tkazayotganini bildiradi.

Chaqiriluvchilarning turli rangdagi tanitish belgilarini taqib yurishlari nafaqat o'zlariga balki yo'riqchilarga xam katta yordam beradi. Shuningdek, kurs davomida qaysidir haftada qayta tayyorlovga yuborilgan chaqiriluvchilar o'zlarining sheriklari qaysi bosqichga yetib borganlarini bilib olishlari mumkin bo'ladi.

Kurs davomida chaqiriluvchilarga qaror qabul qilishda yordam berish uchun xizmat, jasorat, hurmat, halollik, mukammallik kabi qadriyatlar o'rgatiladi.

Shuningdek, sadoqat va sharafni, jismoniy va axloqiy jasoratni, burchga sadoqatni, rahm-shafqat va halollikni singdiradi. Ushbu qadriyatlar Avstraliya harbiy xizmatchilarning asosini tashkil qiladi.

11-hafta Kursni tamomlash va tantali marsh



Ushbu haftada juma kuni paradga tayyorgarlik ko'rishda mashg'ulotlarning nozik tomonlari, shuningdek, kiyim-kechak va jihozlar mukammallikka yetkazishni ta'minlashga bag'ishlanadi.

Juma kuni tantali parad bo'lib o'tadi va chaqiriluvchilarga tegishli sertifikatlar topshiriladi. Shanba kuni esa chaqiriluvchilarga kechgacha ta'tilda bo'lishlari belgilangan. Shundan so'ng yangi haftada mamlakat bo'ylab harbiy qismlarga faoliyatlarini davom ettirish uchun tarqatiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Avstraliya armiyasi merganlar tayyorlash markazlariga saralangan hamda qabul qilingan nomzodlarni tayyorlashda alohida e'tibor qaratiladi. Amalga oshirilgan maxsus operatsiyalar merganlar shaxsiy tarkibiga (mutaxassislariga) yuklatilgan maxsus vazifalarni yo'qotishlarsiz va kam kuch sarf qilgan holda (masofadan turib) muvafaqqiyatli bajarishlariga zamin yaratib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Макнаб, К. Психологическая подготовка подразделений специального назначения / К. Макнаб. - М., 2002. - 326 с.
2. Потапов, А.А., Искусство снайпера / А.А. Потапов. - М., 2003. - 347 с.
3. Тарас, А.Е., Малая война / А.Е.Тарас. - М., - 2003. - 463 с.
4. R.S. Samarov, Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati / R.S. Samarov [va boshq.] - T.: "InnovatsiyaZiyo", 2020.
5. <https://militarypravda.ru/1687328-armiya/> internet ma'lumotlari.